

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 243 (1304), 2024-yil 29-noyabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

DINIY MA’RIFAT  
EZGULIK VA TINCHLIKKA  
XIZMAT QILSINDavlat rahbariga ijtimoiy muhitni mustahkamlash  
hamda diniy ma’rifatni rivojlantirish  
borasidagi ishlar haqida axborot berildi.

O‘zbekiston — huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyamizda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Ming shukrki, yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhiti hukm surmoqda. Barcha din vakillari ibodat amallarini eminerkin ado etmoqda.

Oxirgi besh yilda diniy-ma’rifiy sohaga oid 3 ta qonun, 4 ta Prezident farmoni va ko‘plab qarorlar qabul qilindi. Yig‘ilishda ularning ijrosi din vakillariga xizmat qilyotgani qayd etildi.

Xususan, yurtimiz musulmonlari uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida 100 dan ortiq masjid barpo etildi, 555 tasi ta’mirlandi. Diniy tashkilotlar uchun bino qurilishiga yer ajratish tartibi joriy qilindi.

Haj kvotasi avvalgiga qaraganda 2 karra oshirildi. Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtdoshimiz haj amallarini bajardi. Ubra safarlarini tashkil qilish qonuniy tartibga solindi.

Sohada malaka va ilm masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbus bilan tashkil etilgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqotlarga zamin bo‘lmoqda. Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Termiziy o‘rta maxsus ta’lim muassasasida malakali mutaxassislar tayyorlanayapti. Shuningdek,

30 ming fuqaro “Qur’oni karim va tajvid” kurslarini tamomladi.

Qabristonlarni obod qilish — savobli ish. So‘nggi yillarda Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy, Suzuk eta yodgorlik majmualari obod qilindi. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida bunyodkorlik

davom etmoqda. “Vaqf” xayriya jamoat fondi tomonidan ham 90 ta ziyoratgoh ta’mirlandi, obodonlashtirildi.

Islom ma’rifatini keng yoyish va tajriba almashish maqsadida xalqaro aloqalar ham kengaytirilmoqda. Jumladan, bu yil yurtimizda “Islom — ezgulik va tinchlik dini” hamda “Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, Bag‘rikenglik haftaligi o‘tkazildi.

Ma’lumki, bugun kibermakonda xavf-xatarlar kuchayib bormoqda. Chegaralar va qonunlarni tan olmaydigan internet tarmoqlari orqali radikal g‘oyalarni tarqatish keloqda. Buning oqibatida aholining nisbatan zaif qatlamlari, jumladan, yoshlar turli noqonuniy guruhlarni ta’qib qilayotgani afsuslanarli. Buning oqibatida aholining nisbatan zaif qatlamlari, jumladan, yoshlar turli noqonuniy guruhlarni ta’qib qilayotgani afsuslanarli. Buning oqibatida aholining nisbatan zaif qatlamlari, jumladan, yoshlar turli noqonuniy guruhlarni ta’qib qilayotgani afsuslanarli.

Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlari tajribasi asosida mahallalarda “Oqsoqollar va ot-onalar kengashlari” tuzilgani bunda muhim o‘rin tutmoqda. Yurtimiz hojilarining “Yangi O‘zbekistonning fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat tarqatishiga aylanamiz” degan tashabbusi ham ijtimoiy vaziyatni yaxshilashda ijobiy qadam bo‘ladi.

Bunday xayrli ishlarni davom ettirib, mahallalarda ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarni ilmu hunarga chorlash muhimligi aytiladi. Mutasaddirlarga ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, bandlegini ta’mirlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Mamlakatimizdagi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik doimiy e’tibordir bo‘lishi ta’kidlandi.

O‘ZA

QAYTA ISHLASH VA EKSPORT YAXSHILANMAS EKAN,  
MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISHDA NATIJA BO‘LMAYDI

## Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-noyabr kuni meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimizda 4 million gektardan ziyod sug‘oriladigan ekin maydonlari bor. Ularda, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari va iqtisodiyot tarmoqlari uchun xomashyo yetishtirilmoqda. Oxirgi yillarda paxta va g‘alla maydonlaridan 260 ming gektar dehqonchilik uchun ajratilgan. Endi yana 104 ming gektar berilishi mo‘ljallangan.

Bu yil oziq-ovqat eksporti o‘tgan yilga nisbatan 370 million dollarga ko‘payib, hozirgacha 2 milliard dollardan oshdi. O‘zbekiston o‘rik eksporti bo‘yicha dunyoda uchinchi, gilos va shaftoli bo‘yicha yettinchi, mosh va boshqa dukkakli mahsulotlar bo‘yicha o‘ninch o‘ringa chiqdi. Birgina gilos 16 ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Eksport Qoraqalpog‘iston va Jizzaxda 2,2 barobar, Xorazmda 1,8 barobar va Surxondaryoda 1,6 barobar ko‘paygan. Lekin ayrim viloyat va tumanlarda o‘zgarish sezilmagan. Masalan, yeri ko‘p bo‘lgan Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatidagi o‘sh uchun imkoniyatiga mos emas. Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida eksport o‘tgan yilga nisbatan kamaygan.

Yurtimizda 5 mingdan ortiq qishloq mahallasi bor. Tuman markazi va shaharlarda yana 2 mingdan ko‘proq mahalladagi xonadonlar tomorqaga ega. Lekin atigi mingta mahallaga ko‘chat tarqatilib, mahsulotni sotib oluvchi tadbirkor birlashtirilgan.

26 ta tumanda tomorqa xizmati yo‘lga qo‘yilmagan. Ba’zi joylarda dehqonlarga sifatsiz urug‘ sotilgani tufayli mahsulot yo‘qotilgan.

Shu bois, har bir mahalla, xonadon va fermer xo‘jaligiga O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi xodimi birlashtirilishi belgilandi.

Tomorqa va uylar oldi, mahalladagi ko‘chalar bo‘yi, dala cheti va kanallar atrofida 650 ming gektar yer bor. Bu ham oziq-ovqat mahsulotlari va daraxtlar ekish uchun yaxshi imkoniyat. Endi bu yerlarning aniq o‘lchami tasdiqlanib, “Agroplatforma”ga kiritiladi. Aholi va fermerlar sifati urug‘ tanlash, dori va o‘g‘itni to‘g‘ri qo‘llash, mahsulotni sifatlari saqlashga o‘rgatiladi.

Bu sa’y-harakatni rag‘batlantirishga katta yengilliklar beriladi. Dala chetini samarali ishlatgan fermerlarga tadbirkorlar reytingida qo‘shimcha ball hisoblanadi, ichki fitosanitar sertifikatini bir yil davomida bepul beriladi. Fermerning barcha yerlari uchun yer solig‘ini ikki yilga bo‘lib to‘lashga ruxsat etiladi. “O‘ilaviy tadbirkorlik” dasturidagi 100 million so‘mgacha bo‘lgan kreditlar soddalashgan tizimda ajratiladi. Dala chetlari hisobi, yetishtirilgan mahsulot hajmi “e-Fitouz” portali orqali nazorat qilib boriladi.

Mahallalarda ko‘chalar va ko‘p qavatli uylar atrofida 10 million tup uzum ekish tashabbusi bildirildi. Ular yo‘shib, hosilga kirguncha Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi barcha agrotexnik tadbirlarga ko‘maklashadi. Mahsulotlarni sotib olish uchun mahallalar eksportchi korxonalariga bog‘lanadi.

Yig‘ilishda meva-sabzavotlarni qayta ishlash masalasi tahlil qilindi.

Pishiqchilik davrida narx tushib ketishi oqibatida karam, lavlagi, piyoz kabi mahsulotlar dalada qolib ketayapti. Bu yil tarvuzning ham katta qismi yig‘ib olinmadi. Holbuki, ehtiyodan ortgan mahsulotni quritib, kukun shaklida eksport qilish mumkin, bunga qandolatchilik korxonalarida talab katta.

Eksport yil davomida bo‘lishi uchun “shok” usulida muzlatish texnologiyasi samarali. Shu bois, qishloq xo‘jaligi vaziri va viloyat hokimlariga kelasi yil shunday loyihalarni ishga tushirish topshirildi.

Shuningdek, 10 ta agrologistika markazi, mingdan ortiq sovitsikichli omborxonalar tashkil etiladi. 40 ming gektardan ortiq sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etiladi.

Ma’lumki, jahon bozorida organik mahsulotlar narxi 2-3 barobar qimmat. Yurtimizda 10 ta tumandagi 3 ming 900 gektar maydonda organik sertifikat bor, xolos. Andijon, Jizzax va Xorazmda esa bunday mahsulot yetishtiriladigan biron-bir yo‘l yo‘q.

Vaholanki, suv omborlari atrofida pestitsid ishlatilmaydigan 2 ming gektar yerda ekin yetishtirilyapti. Faqat ularga organik sertifikat olinib, toza urug‘ va ko‘chatlar ekilsa bo‘lgani.

Shu kabi imkoniyatlar olish xarajatlari uchun tadbirkorlarga subsidiya ajratiladi.

Bu yil O‘mon Sultonligining yirik savdo tarmoqlarida O‘zbekiston mahsulotlari uchun alohida rasta ajratilib, ilk bor gilos, shaftoli va o‘rik eksporti yo‘lga qo‘yildi. Buni Malayziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropada ham kengaytirish

zarurligi ta’kidlandi. Savdo yarmakalari tashkil qilish, fitosanitar ruxsatnoma olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Umuman, ushbu chora-tadbirlar orqali kelgusi yilda meva-sabzavot eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish mumkinligi qayd etildi.

Yig‘ilishda, shuningdek, atrof-muhitni asrash masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Mutasaddirlar Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida chiqindilarni qayta ishlash loyihalarining borishi yuzasidan axborot berdi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasiga yana bir bor e’tibor qaratildi. Bu harakat doirasida har yili bahor va kuzda 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish belgilangan. Shu paytgacha vazirlik, idora va hokimliklar tomonidan 257 ta “yashil bog‘” barpo etilib, ularning soni 517 taga yetgan.

Prezidentimiz bu xayrli ishda davlat tashkilotlari namuna bo‘lishi, qurilish kompaniyalari ijtimoiy mas’uliyat olishi kerakligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda ijro intizomi masalasi ham tahlil qilindi. Yil yakunigacha oz qolgan, belgilangan barcha vazifalarni bajarish natijadorlikni oshirishi qayd etildi.

Kelgusi yil har bir vazirlik, viloyat va tumandagi ishlarining tizimli hisobi olib boriladi. Bu elektron platformaga o‘tkazilib, so‘rov ham, maosh ham shunga bog‘lanadi.

Bosh vaziriga ushbu tizimni yo‘lga qo‘yib, ijro intizomi va nazoratni kuchaytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘ZA

## Yangi O‘zbekiston yo‘li

UCHINCHI RENESSANSNI  
QANDAY TASAVVUR ETAMAN?

Uchinchi Renessansdek murakkab fenomen hodisa haqida o‘ylar ekanman, xayolimga davlatimiz rahbarining Prezident lavozimida endi ish boshlagan ilk davri — 2016-yil 30-dekabrda o‘tkazgan tarixiy yig‘ilishi keladi. O‘sha kun, ta’bir joiz bo‘lsa, O‘zbekistonda turli qiyinchiliklar, ma’muriy to‘siqlarga qaramay mehnat qilayotgan minglab olim, tadqiqotchilarning ko‘kragiga shabada tekkan kun bo‘ladi.



Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N I  
E.O.TURDIMOVNI SAMARQAND  
VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIDAN  
OZOD ETISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, **Erkinjon Oqbutayevich Turdimov** boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOEYEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 28-noyabrO‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N I  
A.M.BOBOYEVNI SAMARQAND  
VILOYATI HOKIMI  
VAZIFASINI BAJARUVCHI ETIB  
TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, **Adiz Muzafarovich Boboyev** Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOEYEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 28-noyabr

Aynan shu kuni Prezidentimiz yurtimiz olimlari, Fanlar akademiyasi akademiklari oldida nutq so‘zlab, mamlakat va millatning bundan keyingi taraqqiyotini ilm-fan yutuqlarisiz tasavvur etib bo‘lmasligini ta’kidladi.

Tasavvurimda bu uchrashuv mamlakat rahbarining uzoq yillar davomida amalga oshirishi armon bo‘lib kelgan, ammo hech qachon unga tinchlik bermagan masalalarning yechimini topish, yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish uchun mustahkam poydevor yaratish sari dastlabki qadam edi.

Bir paytlar turli sabablar bilan yopilgan Fanlar akademiyasining qator institutlari, ilmiy markazlar qisqa

muddatda tiklana boshladi. Tirikchilik g‘amida jonajon ilmiy markazlarini tark etgan yirik olim mutaxassislar xursandlik bilan institutlariga, ilmiy markazlariga qaytdi. Ularning moddiy ahvoli yaxshilandi, olimlik maqomi ko‘tarildi.

Zamon talabiga javob beradigan yangidan yangi institutlar, ilmiy markazlar ochilib, olimlarimizning xorijlik sheriklari bilan ilmiy-texnikaviy aloqalari va hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Turli sabablar tufayli mamlakatimizdan ketib, boshqa davlatlardagi ilmiy markazlar, laboratoriyalarda mehnat qilayotgan olimlarimiz vatanga qaytdi. Ularning mehnatiga munosib haq to‘lash tizimi yaratildi.

Keyinchalik — 2019-yil 10-sentabrda Toshkent shahrida ilk bor Prezident maktabi ochildi. Uning ochilishida birinchi marotaba Uchinchi Renessans barpo etish uchun poydevor qo‘yilgani qayd etildi. O‘sha yig‘ilishda davlatimiz rahbari faxriy mehmonlar kitobiga “Yangi O‘zbekistonda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o‘z Vatani joni bilan ortiq sevardigan, uning yorug‘ kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz”, degan so‘zlarni yozgan.

Davomi 3-beta



## YOSHLAR – ISLOHOTLARNING CHINAKAM ISHTIROKCHISI

**Hozirgi davrda dunyodagi iqtisodiy,  
siyosiy va ijtimoiy muammolar yechimi to'g'ridan to'g'ri  
yoshlar bilan bog'liqdir. Chunki bugungi yoshlar ertaning yetakchi  
kuchi – liderlari sanaladi.**

Otabek SOBITOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
huzuridagi Yoshlar parlamenti  
raisi o'rinbosari



Dunyo aholisining qariyb to'rtinchi qismini tashkil etuvchi yoshlar vakillarining 89 foizi kam rivojlangan davlatlarda istiqomat qiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda dunyo bo'yicha yoshlarning ulushi 7 foiz oshishi kutilmoqda. Bu esa yoshlar masalalariga va yosh avlodni voyaga yetkazish bilan bog'liq muammolarga e'tiborni kuchaytirish zaruratini talab etmoqda.

Davlatimiz rahbari 2017-yili BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiya qabul qilish tashabbusini ilgari surish orqali yoshlar masalalarida xalqaro hamjamiyat bilan konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yishni — yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Yoshlar muammolarini hal qilish faqat bir davlatga taalluqli masala emas. O'zaro bog'liq dunyoda yoshlar masalalarida xalqaro hamkorlik, doimiy konstruktiv muloqot hamda xalqaro formatlar doirasida mavjud muammolarga yechimlar ishlab chiqish bugungi davr talabidir.

Mamlakatimiz aholisi umumiy sonining 55 foizidan ortig'i, ya'ni qariyb 19 millionini yoshlar tashkil etmoqda. Shu bois, yoshlar masalalari davlatimiz siyosatida strategik ahamiyat kasb etadi. 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlangani ham bejiz emas. "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga hamohang ravishda davlat dasturi ishlab chiqilib, mazkur dastur asosida yil davomida ular bilan ishlash borasida yangi tashabbuslar amaliyotga tatbiq etildi.

Yurtimizda so'nggi 8 yilda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 120 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Prezidentimiz yoshlar siyosatida ham yangicha yondashuv va munosabatni ilgari surdi. Bu yo'nalishga eng ustuvor ahamiyat qaratib, birinchi imzolagan hujjati ham "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun bo'ldi.

Mazkur qonunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tarqilish choralar-tadbirlari o'z aksini topgan. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi har bir subyektning vakolatlari aniq belgilangan.

2017-yil 30-iyun kuni mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan O'zbekiston yoshlar itifoqi tashkil etildi. Ushbu sana respublikamizda Yoshlar kuni deb e'lon qilindi.



O'zbekiston sharoitida yoshlar bilan ishlash, yosh avlod vakillarining siyosiy, huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish, ularni siyosiy jarayonlarga faol jalb etish orqali mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ular uchun yangi imkoniyatlar

yaratish maqsadida mutlaqo yangicha tizim shakllantirildi.

Bugungi kunda hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati ularning zamon talablarida darajasida ta'lim olishi, o'sib-ulg'ayishi, o'z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturiga asosan, Oliy Majlisning har ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etildi. Bu mamlakatimizning eng oliy organi bo'lgan parlamentda yoshlarning so'zi va ovozi yuqori minbarlardan turib yangrashiga xizmat qilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

78 nafar yosh esa doimiy ish bilan ta'minlandi. Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda ijtimoiy og'ir ahvolda bo'lgan 289 yoshga moddiy yordam ajratilishiga, 178 talabani to'lov-kontrakt summalarini to'lab berilishiga, 25 nafar yigit-qizga tibbiyot asbob-uskunalari olinishiga, 1560 yoshning bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilishiga ko'maklashildi. Yoshlar parlamenti a'zolari malakasini doimiy oshirib borish bo'yicha 21 marta qisqa muddatli offlayn mahorat mashg'uloti tashkil etilib, mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlardagi islohotlar mazmun-mohiyati tushuntirildi.

Davlatimiz rahbari raisligida 2023-yil 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqqa muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining 150 a'zosi 21 ta vazirlik va idoraga birlashtirildi. Joriy yilning avgust-noyabr oylarida mazkur vazirlik va idoralar bilan kichik ishchi guruhlarining yig'ilishlari tashkil etildi. Telegram ijtimoiy tarmog'ida alohida guruhlar shakllantirildi. Shu kunga qadar 10 ta vazirlik rahbariyati bilan Yoshlar parlamenti a'zolarining qo'shma yig'ilishlari o'tkazilib, mavzuga oid takliflar bildirildi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasi o'sib borishi, jamiyatni demokratishtirish va liberallashtirish jarayonlari jadal

rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohada ishlohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirayotdi. Zero, sog'lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchdir. Yoshlarga oid davlat siyosati, avvalo, har bir davlatning ichki siyosati bo'lib, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Ushbu sohada izchil islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayondir.

Zamonaviy tendensiyalar yosh avlodning hayotiy va axloqiy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur vaziyatda yoshlarni taraqqiyot ishtirokchisi qilish orqali ularning islohotlar mohiyatini tushunish, imkoniyatlarini qadrlash hissi shakllantirishimiz muhim.

Prezidentimiz ham yigit-qizlar bugungi islohotlarning kuzatuvchisi emas, talaba, yosh olim, davlat xizmatchisi, tadbirkor, sportchi sifatida ularning ishtirokchisi bo'lishini hamda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda faol qatnashishini ta'minlashga e'tibor qaratmoqda. Zero, biz yangi O'zbekistonda barpo etishda azmu shijoatli yoshlarimizni xalqimizning chinakam tayanchi va suyanchi deb bilimiz!

## Xalqaro e'tirof

Jahon banki tomonidan mamlakatlarning statistik salohiyatini o'rganish va baholab borish maqsadida yangilangan uslubda ishlab chiqilgan Statistika faoliyati samaradorligi indeksi (Statistical Performance Indicators - SPI) e'lon qilindi.


## O'ZBEKISTON JAHON BANKI INDEKSIDA SEZILARLI DARAJADA KO'TARILDI

Ulug'bek NOIPOV,  
Statistika agentligi  
boshqarma boshlig'i o'rinbosari



2000-yillarga kelib, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari yuqori sifatli, ishonchli, to'laonli va dolzarb, o'zaro solishtirish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlarga talabni oshirdi. Bu, o'z navbatida, mamlakatlarning statistik salohiyatini, mazkur yo'nalishda erishayotgan yutuqlarini va tizimni rivojlantirish borasidagi islohotlar natijalarini baholab borishni taqozo etdi. 2004-yilda bu borada Jahon banki tashabbus ko'rsatib, Statistika salohiyati indeksi ishlab chiqildi. Mazkur indeks 154 mamlakatning statistik salohiyatini o'rganadi. Baholash manbalari sifatida xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarining

### STATISTIKA FAOLIYATI SAMARADORLIGI INDEKSIDA O'ZBEKISTON KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI



milliy axborot makonidagi (milliy statistika tizimi ishtirokchilari) ma'lumot bazalari hamda ularga oid hujjatlardan foydalanadi.

Bugungi kunga kelib, transformatsiya jarayonlari, yangi axborot manbalari, foydalanuvchilarning statistik ma'lumotga bo'lgan ehtiyoji jadal o'sishi ushbu indeksning hisoblash uslubini takomillashtirish zarurati yuzaga keltirdi. Pirovardida Jahon banki qator xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda mutlaqo yangicha yondashuv asosida ishlab chiqilgan Statistika faoliyati samaradorligi indeksi (SPI) uslubiyatini taqdim etdi hamda 2022 va 2023-yil yakunlari bo'yicha natijalarini e'lon qildi.

Yangilangan Statistika faoliyati samaradorligi indeksi avvalgi ayrim jihatlarini saqlab qolgan holda milliy statistika tizimlari salohiyatini yanada kengroq o'lchov vositalari yordamida baholashga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, u orqali davlatlarning milliy statistika tizimlarini to'liq, ishonchli va xolis baholash asosiy maqsad qilingan.

SPIning asosiy baholash tamoyillari milliy statistika tizimi faoliyatining barcha jahalalarini qamrab oladi. Natijadorlikka erishish uchun to'g'ri tanlangan ma'lumotlar manbalari va lozim darajada infrazivilma talab qilinadi. Umuman olganda, mazkur indeksda yuqori bahoni olish uchun barcha elementlar "sog'lom" bo'lishi, ya'ni raqamlar mavjud, tadbirlar yoki indikatorlar davriy va barqarorlik prinsiplari asosida sifatli uslubiyat asosida shakllantirilishi lozim.

Baholashda 5 ta tamoyil (komponent) ga tayaniladi. Beshta tamoyilning har biri biz o'lchovlar deb ataydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur o'lchov birligi mamlakatning statistik natijalarini baholash mumkin bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarning alohida tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak, baholash 5 ta tamoyil va 22 ta tegishli o'lchovdan tashkil topgan.

Mazkur o'lchovlar 51 indikatorga asoslanib, har bir o'lchov mamlakat statistik faoliyatini baholashda muhim o'rin tutadi. Maqsad indikatorlar emas, balki tamoyil va o'lchamlarga e'tibor qaratilishdir. SPI uchun ko'rsatkichlar quyidagi talablar asosida tanlanadi: hamma uchun ochiq ma'lumotlardan foydalanish, shaffof uslubiyat, oson takrorlash, natijalar va ularni qo'llab-quvvatlovchi elementlar, BRMLami aks ettirish, ishlahni kuzatish uchun vaqt hamda global miqyosda bir qarashda taqqoslash imkoniyati mavjudligi.

Mazkur xalqaro indeksning ma'lumotlardan foydalanish komponenti (yakuniy natija) besh turdagi foydalanuvchilarni o'z ichiga qamrab oladi. Bular — qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, fuqarolik jamiyati, ilmiy hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar. Samaradorlikni baholash uchun ko'rsatkichlar har bir o'lchov birligi bilan bog'liq va milliy statistika tizimi mukammal bo'lsa, barcha o'lchovlar bo'yicha yaxshi baholarga erishish mumkin. Aksincha, tizim faoliyatida muammolar mavjud bo'lsa, muayyan

o'lchovlar bo'yicha pastroq baholar kuzatiladi. Aniqlangan bo'shliqlar foydalanuvchilar guruhlari o'rtasidagi ustuvorlik haqida tushuncha beradi va xulosa chiqarishga ko'maklashadi.


Indeksda O'zbekiston 2023-yil yakunlari bo'yicha 100 ballik tizimda 80,3 ball to'plab, dunyoning 217 ta mamlakati ichida 62-o'rinni egalladi. Statistika faoliyati samaradorligi indeksi MDHning barcha mamlakatlari ishtirok etgan bo'lib, O'zbekiston ular orasida 4-o'ringa ko'tarilgan.

O'zbekiston mazkur xalqaro reytingda 2022-yilda 100 ball tizimda 74,1 ball to'plab, 79-o'rinni munosib bo'lgandi. Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari guruhining o'rta bahosidan (84,9 ball) nisbatan pastroq natijalar kuzatilsada, umumiy hisobda 2016-yildagiga (36,7 ball) nisbatan sezilarli o'sish tendensiyasini ko'rish mumkin.

Ushbu indeks mamlakatning statistik salohiyati, erishayotgan yutuqlari va milliy statistika tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlari natijalarini aks ettiradi.

### STATISTIKA FAOLIYATI SAMARADORLIGI INDEKSI (SPI)DA DUNYO VA MDH MAMLAKATLARINING O'RNI

Mamlakatlar	2023	
	O'rin	Ball
Daniya	1	95,3
Finlyandiya	2	95,1
Polsha	3	94,7
Shvetsiya	4	94,4
Ispaniya	5	94,3
...	...	...
Moldova	44	86,1
Armaniston	48	85,0
Rossiya Federatsiyasi	52	82,9
O'zbekiston	62	80,3
Qozog'iston	65	79,8
Qirg'iz Respublikasi	74	76,8
Tojikiston	163	48,6
Turkmaniston	186	30,7



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



Kun mavzusi



Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Hamon esimda: maktabimiz hovlisidagi quvurdan toza ichimlik suv kunu tun behuda oqib yotardi. Suvni tejash, isrof qilmaslik xususida hech kim loj-mim demasdi. Bunday holatga uyda, ko'cha-ko'ya ham duch kelardik. Suvga bitmas-tuganmas xazina sifatida qaralar, ekinlarni sug'orish, hovliga suv sepush odat tusiga kirib qolgandi.



SUV TUGANMAS XAZINA EMAS

UNGA MUNOSABATNI O'ZGARTIRISHIMIZ LOZIM

Yaqinda o'quvchiligi o'tgan maktabda, mahallada bo'ldim. Suvga munosabat tubdan o'zgaribdi. Quvurlarga hisoblagichlar va jo'mraklar o'rnatilgan. Ichki ariqlar betonlashtirilgan. Demak, suvni isrof qilmaslik, bebaho ne'mati asrash, har tomchisidan oqilona foydalanish borasidagi targ'ibotlar samara beryapti. Iste'molchilar suvdan me'yorida foydalanishga harakat qilaypti, tejamkorlikka oid yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlayapti. Zotan, suvga munosabatni bolalikdan oila va ta'lim dargohlarida shakllantirmay turib, ko'zlangan natijaga erishish qiyin. Chunki ona tabiatning bu bebaho ne'mati kundan kunga kamayib bormoqda.

886 kilometr uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmoqlari ishlab turibdi. Shu kunga qadar davlat byudjetidan ajratilgan 17 milliard so'm mablag' hisobidan 15 kilometr uzunlikdagi "Xonobod vetka" tumanlararo kanali betonlashtirildi. O'tgan asrning 50-yillarida qurib ishga tushirilgan kanal Zo'yovon, Qo'shtepa va Toshloq tumanlaridagi 8,5 ming gektar ekin maydonini sug'orishga xizmat qiladi. Kanalning mavsumiy suv olish imkoniyati sekundiga 6-8 kub metr bo'lib, foydalanish davrida o'rtacha 30-35 foiz suv yo'qotilgan. Kanalni betonlashtirish natijasida 15,5 million metr kub suv iqtisod qilinib,

qo'shimcha 2,5 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi, suv oqimi tezligi 5 barobar oshdi. Prezidentimiz raisligida joriy yil 7-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda oldimda turgan muhim masalalar, muammo va yechimlarga alohida e'tibor qaratildi, — deydi "Sirdaryo-So'x" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Zuhriddin Orifjonov. — "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish" ikkinchi bosqich

loyihasi doirasida joriy yilda 2 million dollar o'zlashtirilib, Quvasoy shahri hamda Farg'ona tumanidagi xo'jaliklararo 4 ta kanalning 25,6 kilometr qismi betonlashtirildi. Natijada 38 million kub metr/sekund suv iqtisod qilinib, 8,2 ming gektar yerning suv ta'minoti yaxshilandi. Shuningdek, 1420 kilometr ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish borasida amaliy ishlar qilyapti. Buning hisobiga 134 million kub metr suv tejaldi va 43 ming gektar maydonning suv ta'minoti yaxshilandi. Fermer xo'jaliklarining ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish bo'yicha barcha tumanda shtab tashkil qilingan, kerakli ishchi kuchi, texnikalar jalb etilmoqda. Oxirgi ikki yilda yerni lazerli tekislashga katta e'tibor qaratilyapti. Jumladan, fermer xo'jaliklari va klasterlar tomonidan 61 ta lazerli yer tekislagich sotib olindi. Kelgusi yilda yana 110 ta ana shunday zamonaviy texnika olib kelish rejalashtirilgan.

ta'sir ko'rsatgan. Ayrim joylar keragidan ortiq chuqur bo'lgani bois, suv sathini ko'tarishda o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga kelardi. Me'yorida ortiq suv ariq qirg'og'ini buzib, behuda oqib ketgan. Xo'jalik hududidagi ichki ariqlarni betonlashtirish, suv yo'llarini nishablash borasidagi ishlar ortiqcha isrofgarchilik va ovoragarchiliklarning oldini oldi. Endi kam suv sarflagan holda barcha ekin maydonini tez va sifatli sug'orish mumkin.

Amirobod suv arig'i orqali 100 gektarga yaqin ekin maydonini sug'oramiz, — deydi fermer Abduqodir Niyozov. — Bu mavsumda 60 million kub metr dan ziyod suv talab qiladi. Ichki ariqlarni betonlashtirganimizdan so'ng shu miqdorning qariyb 30 foizi tejab qolinmoqda. Vegetatsiya jarayonida ekin maydoni boshiga suv olib borish uchun 4-5 soat sarflaganmiz. Ariqlar betonlashtirilgach, bu jarayon ikki hissa tezlashdi. Iqtisod qilingan obihayot qo'shimcha ekinlar ekish, yangi ish o'rinlari yaratishda qo'l kelmoqda. Joriy mavsumda 20 gektar paxta maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etdik. Samarali usul har jihatdan foydali ekani amalda isbotlandi. Mineral o'g'it, qator oralariga ishlov berish bilan bog'liq xarajat 40 foiz tejaldi. Har gektar yerdan 45 sentnerdan hosil terib oldik. Ayni kunda bir kilometrdan ortiq ichki suv tarmoqlarini betonlashtirish, 20 gektar g'alla maydonida yomg'irlatib sug'orish tizimini o'rnatish borasida ishlayapmiz. G'alla maydonlari yomg'irlatib sug'orilsa, sepilgan urug' bexato umib chiqadi. Eski usulda muayyan

miqdordagi don urug'i oqin suv tarkibidagi loya tagida qolib nobud bo'ladi. Natijada hosildorlik va daromadga putur yetadi.

Viloyatda umumiy quvvati 21,3 megavattli 13 ta mikro GES qurish rejalashtirilgan. "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan Farg'ona tumanida 2 megavattli 1 ta mikro GES qurilib, ayni paytda foydalanishga topshirildi. 1 ta 0,43 megavattli mikro GESni qurish ishlari yakunlanmoqda.

Bundan tashqari, Quva tumanida quvvati 12 megavattli 1 ta kichik GES qurish bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlanib, qurilishi boshlanmoqda, — deydi "Sirdaryo — So'x" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi bo'lim boshlig'i Shohrux Mirzayev. — Yaqin istiqbolga mo'ljallangan hisob-kitoblarga ko'ra, 110 ta gidrotexnik inshoot hamda 5 ta kanalga quvvati 96,2 megavatt bo'lgan 142 ta mikro GES qurishni rejalashtirganimiz. O'tgan 4 yilda suv o'lchash inshootlarida suv sarfini onlayn tarzda kuzatish imkonini beruvchi 1548 ta "aqliq suv", meliorativ quduqlardagi suv sathini onlayn tarzda aniqlovchi 424 ta dayver qurilmadi, 168 ta nasos agregatida suv miqdorini onlayn hisoblash qurilmasi, 1350 ta tik sug'orish qudug'ini masofadan boshqarish tizimi o'rnatildi. Raqamli texnologiyalar yordamida onlayn rejimda suv sarfi, sathi va ularning mineralizatsiya ko'rsatkichlari monitoringini yuritish orqali yerning meliorativ holatini baholash aniqligi 20 foiz oshdi. Polmon, Vodil, Sariqo'rg'on, Qo'qon, Fayziobod va Besh olish gidrozellari boshqaruvi avtomatlashtirildi. Natijada har yili o'rta hisobda 1,5-2 million kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilypmiz.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 118 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihani amalga oshirish doirasida viloyatdagi 16 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish belgilangan. Loyiha doirasida umumiy qiymati 22,39 million dollarlik investitsiya hisobidan nasos stansiyalariga sarflanayotgan elektr energiyasi yiliga 45,8 million kilovatt-soatga tejaldi, ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq xarajat 1 milliard 230 million so'mga qisqardi. Buning evaziga 8,5 ming gektar maydon foydalanishga kiritiladi. Shuningdek, nasos stansiyalari, agregatlar, elektr dvigatellar, energiyatejamkor qurilma va yoritish tizimi uchun 226 kilovatt-soat quyuq panellari, geokollektorlar o'rnatildi. Ayni kunda nasos agregatlari mavjud fermer xo'jaliklarida quyuq panellari o'rnatish borasida ishlanmoqda. Bu samarali tizim natijasida 19 million kilovatt-soat elektr energiyasi iqtisod qilindi.

Oxirgi ikki yilda 37 ta nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor boshqaruviga berildi, — deydi "Sirdaryo — So'x" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi kichik investitsiya loyihalari amalga oshirish bo'limi bosh mutaxassis Murodjon Doliboyev. — Xususiy sektor tomonidan, birinchi navbatda, mazkur nasos stansiyalarida obodonlashtirish, binolarni ta'mirlash ishlari bajarilib, 11 ta nasos stansiyasiga quyuq panellari o'rnatildi. 22 ta nasos agregati yangilandi, 28 ta energiya tejamkor qurilma o'rnatilib, 2,7 milliard so'm investitsiya mablag'i kiritilishi hisobiga yiliga 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi va 2,1 milliard so'mdan ortiq mablag' iqtisod qilinoqda. Joriy yil yakuniga ko'ra, yana 30 ta nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida tashabbuskorlarga berilib, 10 milliard so'm investitsiya kiritiladi. Bu bir vaqtning o'zida 1,8 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 1,8 milliard so'm mablag'ni tejash imkonini beradi.

Suv zarga, suvchi zargarga qiyoslanadi. Ona tabiat ne'mati bo'lgan suv tanqisligi dolzarb masalaga aylanib borayotgan bugungi kunda bu ko'hna ibora mohiyatini ilg'ab olish qiyin emas.



Yangicha yondashuvlar

GORIZONTAL YOKI VERTIKAL FERMERLARGA QAYSI PAXTA TERISH MASHINASI MA'QUL?

Joriy yil 25-noyabrda Prezidentimizga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, paxta va g'alla hosildorligini oshirish bo'yicha takliflar taqdimot qilindi. Unda paxtachilikda ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan holda sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, xorijiy navlar ekishning natijadorligi tahlil etildi.

Davlatimiz rahbari bu borada klaster, fermer va sanoat korxonalarini fikrini o'rganib, masalaga ilmiy yondashish, fermerlarni zamonaviy agrotexnologiyalarga o'qitish muhimligini ta'kidladi. Mutasaddilarga zamonaviy paxta terish mashinasi va aholi tomorqalari uchun kichik agrotexnika vositalari ishlab chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi.



ob-havo sharoiti va iqlim o'zgarishlari tufayli paxta terimi boshlanishi davrida ko'saklar har doim ham 80-90 foiz ochilib ulgurmaydi. Shuning uchun terim boshida ko'saklar 50-60 foiz, terim oxirida 60-70 foiz ochilganda va daladagi hosil gektariga 25-30 sentner va undan past bo'lganda terib olinmoqda. Bu

iqtisodiy jihatdan foydasiz. Chunki bunday holatlarda terim xarajatlari oshadi. Tola sifati pasayadi. Natijada klaster va fermer xo'jaliklari ziyon ko'radi. Shu bois, fermer xo'jaliklari paxta hosilini gorizontall shpindelli mashinalar yordamida terishdan voz kechib, qo'lda terib olishga harakat qilmoqda. Bu, ayniqsa, joriy

mavsumda yaqqol sezildi. Ayrim joylarda o'zimizda 2010-2016-yillarda ishlab chiqarilgan "MX-1,8" rusumli vertikal shpindelli paxta terish mashinalaridan foydalanildi. Kuzatuvlar buning natijalari ijobiy bo'lganini ko'rsatmoqda. Masalan, maxsus tashkil etilgan ishchi guruh Navoiy viloyati fermer xo'jaliklarida mavsumni o'rganishi natijasida paxta terimi va sifati yaxshilangani, mablag' sarfi kamayganiga guvoh bo'ldi. Natijada keyingi yillarda "MX-1,8" rusumli vertikal shpindelli paxta terish mashinasi terimga jalb etilishi ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Lekin "MX-1,8" paxta terish mashinasini ko'saklar 80-90 foiz ochilgan va paxta hosili gektariga 30-40 sentner va undan yuqori bo'lgan dalalarda qo'llash tufayli terim to'liqligi 80-85 foizdan oshmaydi. Yerga to'kilayotgan paxta miqdori 5-10 foiz va undan ko'p, bunkerga tushgan paxta iflosligi esa 10-12 foizgacha yetadi. Bunda agrotexnik ko'satkichlar, albatta, fermerlarni qanoatlantirmaydi. Bu holat "MX-1,8" rusumli vertikal shpindelli paxta terish mashinasidan yuqori hosilli, ko'saklari 80-90 foiz va undan ortiq darajada ochilgan dalalarda foydalanilganida samaradorlikni pasaytirib yuboradi. Shu sababli fermerlar ushbu texnikadan ayrim hollardagina yoki ilojsizlikdan foydalanmoqda, xolos.



Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Toshkent davlat texnika universiteti yer usti transport tizimlari kafedrasida professor-o'qituvchilari, olimlarnimuz g'o'za ko'saklari 80-90 foiz va undan ham ko'proq darajada ochilgan hamda hosildorligi 30-45 sentner bo'lgan dalalarda yetishtirilgan paxtani sifatli terib olish uchun ochilgan ko'saklarga uch kara ishlov beradigan (bir qatorida uch juft barabanli), terim to'liqligini 94 foizgacha va yerga to'kilgan paxta qoldiqlari 3 foizdan oshmaydigan, terilgan paxta ifloslanishi (davlat standart bo'yicha) 8 foizdan kam bo'lgan, "MX-1,8" rusumli vertikal shpindelli mashinaga o'rnatishga mo'ljallangan paxta terish apparatini ishlab chiqadi. Unga intellektual mulk markazi tomonidan patent berildi.

Ushbu terish apparati o'rnatilgan "MX-1,8" rusumli vertikal shpindelli paxta terish mashinasini sanoat asosida ishlab chiqarishga tayyorlash va paxta yig'im-terim mavsumida keng qo'llash fermer xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi rivojiga katta hissa qo'shadi. Imkoniyatni kengaytiradi. Bu bilan, avvalo, qimmat va foydalanish xarajatlari juda yuqori bo'lgan gorizontall shpindelli mashinalarni xorijdan sotib olish uchun sarflanadigan valyuta tejaldi. Respublikamiz sanoat korxonalarida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Eng asosiysi, to'qimachilik sanoati sifatli va arzon paxta tolasi bilan ta'minlanadi.

Masharip HOJIYEV, Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, texnika fanlari nomzodi

Bugunning gapi

# KIBERBULLING VA AHOLINI UNDA HIMOYA QILISH

Temurbek PO‘LATOV, Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi

## Kiberbulling nima?

Kiberbulling zamonaviy jamiyatda eng muhim ijtimoiy va huquqiy muammolardan biri sifatida tan olingan. Internet texnologiyalari jadal rivojlanishi axborot almashinuvini osonlashtirish bilan birga, yangi turdagi tahdidlarni ham yuzaga keltirdi. Jumladan, kiberbulling — raqamli muhitdagi tajovuzkor va qasddan qilingan harakatlar orqali insonlarning shaxsiy hayotiga zarar yetkazish, ularni tahqirlash, qo‘rqitish yoki ta‘qib qilish amaliyoti.

Kiberbulling global muammo bo‘lib, uning ta’siri O‘zbekistonda ham keng ko‘lam kasb etmoqda. Mamlakatimizda internet foydalanuvchilarining tez o‘rinishi bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali tarqalgan tahdidlar ham ko‘payib bormoqda. Telegram, Facebook, Instagram va TikTok kabi platformalarda yolg‘on ma‘lumotlar tarqatish yoki tahqirlash holatlari nafaqat shaxsiy hayotga, balki jamiyatdagi madaniyat va axloqiy qoidalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu muammoning muhim jihati shundaki, kiberbulling nafaqat jabrdiydagi ruhiy zarar yetkazadi, balki shaxsiy ma‘lumotlar maxfiyligi va inson sha‘ni himoya qilinmaganligi ham ko‘rsatadi. Bunday sharoitda fuqarolarning huquqiy savodxonligi, shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha bilimlarini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Kiberbullingning ko‘plab ko‘rinishlari mavjud. Ularning barchasi insonning shaxsiy hayoti, qadr-qimmatini va ijtimoiy maqomiga putur yetkazishga qaratilgan. Tahqirlash va tuhmat kiberbullingning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda shaxs haqida yolg‘on ma‘lumotlarni tarqatish uning obro‘-e‘tiboriga zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy ma‘lumotlar yoki tasvirlarni rozihsiz joylashtirish yoxud ularni tahrirlab, tahqirlash maqsadida tarqatish kabi holatlar ham keng tarqalgan.

Amaliyotda kiberbulling O‘zbekistonda ham kuzatiladi. Misol uchun, Telegram yoki Facebook platformalarida ayrim shaxslarga nisbatan tuhmatlar tarqatilishi, ularga qaratilgan tahqirlash yoki tahdidli xabarlar jabrdiydalarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu jarayon jabrdiydaning ishonchini yo‘qotish, jamiyatdan chetlashishi va hatto depressiya kabi ruhiy kasalliklarga sabab bo‘ladi.

Kiberbullingning ijtimoiy zarari juda katta. Bu nafaqat shaxsiy munosabatlarga, balki jamiyatdagi umumiy axloq va madaniyat darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning



uchun kiberbullingga qarshi samarali choralar ko‘rish va uning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

## Huquqiy jihatlar va javobgarlik

O‘zbekiston qonunchiligida kiberbullingga qarshi kurashish uchun qator huquqiy mexanizmlar belgilangan bo‘lib, ular inson sha‘ni, qadr-qimmatini va shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilishga qaratilgan. Jabrdiydalarning huquqlarini himoya qilishda qonunning asosiy vazifasi unga yetkazilgan zararni bartaraf etish va huquqbuzarni javobgarlikka tortishdir.

Jinoiyat kodeksi kiberbullingga oid huquqbuzarliklar uchun qator javobgarlik choralarini nazarda tutadi. 139-moddada tuhmat uchun javobgarlik belgilangan. Bunda shaxs haqida yolg‘on ma‘lumotlar tarqatish, uning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazish jinoiyat deb baholangan. Shuningdek, 140-moddaga tahqirlashga qaratilgan bo‘lib, shaxsni tahqirlash yoki uning qadr-qimmatini kamsitish uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik ham kiberbullingning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonunda shaxsiy ma‘lumotlarni noqonuniy tarqatganlik uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan. Bu jabrdiydalarning shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilinishiga qaratilgan huquqiy asoslarni belgilaydi.

O‘zbekiston xalqaro majburiyatlar doirasida kiberjinoiyatchilikka qarshi kurash dasturlariga qo‘shilgan. MDH doirasidagi hamkorlik, xalqaro tajriba va metodlarni o‘rganish kiberbullingga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi.

Kiberbulling uchun javobgarlikni amalga oshirish jarayonida turli jazo choralarini ta‘minlash muhim. Jabrdiydalarning sha‘ni va qadr-qimmatiga yetkazilgan zararni bartaraf etish uchun jarimalar, ma‘muriy choralar va jiddiy holatlarda jinoiy jazo belgilangan.

Shuningdek, jabrdiyda huquqiy himoyadan foydalanishi, jinoiyat ishi yuritilishi yoki sudga murojaat qilish orqali o‘z huquqlarini himoya qilishi mumkin.

Huquqiy mexanizmlar samaradorligi uchun jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning o‘z huquqlarini bilishi va huquqiy himoyadan to‘g‘ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan profilaktika choralarini kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va kiberbulling haqida ma‘lumot berish orqali uning oldini olishga erishish mumkin.

## Huquqlaringizni qanday himoya qilish mumkin?

Kiberbullingdan jabr ko‘rgan shaxslarning o‘z huquqlarini himoya qilishi qonuniy, amaliy va profilaktik chora-tadbirlardan iborat. Bunda jabrdiydalarga nafaqat huquqiy himoya, balki jamoatchilikning yordami ham kerak bo‘ladi. Huquqlarni himoya qilish jarayonining samarali bo‘lishi uchun ular, birinchi navbatda, o‘zlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy qadamlarni tushunishi kerak.

Birinchidan, kiberbullingga duch kelgan shaxslar voqealarni isbotlash uchun dalillarni saqlab qolishi zarur. Bu huquqiy himoyaga yo‘l ochuvchi muhim bosqich hisoblanadi. Skrinshotlar, havolalar, tahdidli yoki tahqirlash xabarlar matnari va multimedia materiallari kiberbullingning dalili sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur dalillar keyinchalik sud yoki



huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun asosiy vosita bo‘ladi.

Ikkinchidan, jabrdiydalarning shaxsiy ma‘lumotlarini maxfiylikni saqlashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Har qanday ijtimoiy



tarmoq va messenjerda maxfiylikni ta‘minlash uchun mos parollardan foydalanish, profilidagi shaxsiy ma‘lumotlarni cheklash, ma‘lumotlarni faqat ishonchli foydalanuvchilarga ochish kabi choralarini ko‘lamlash muhim ahamiyatga ega. Kiberbulling holatida esa zarar yetkazuvchi shaxslarni to‘siq qo‘yish (bloklash) yoki ular haqida platformaning texnik ko‘mak xizmatiga shikoyat qilish ham muhim qadamdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish kiberbullingdan himoyalanish uchun ishonchli yo‘ldir. O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi internetdagi jinoiyatchilikka qarshi

keng imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston qonunchiligida ko‘ra, sha‘ni va qadr-qimmatini himoya etish, ma‘naviy zarar uchun kompensatsiya talab qilish huquqlari mavjud. Jabrdiyda shaxs sudga murojaat qilib, zarar yetkazuvchini javobgarlikka tortish uchun huquqiy da‘vo kiritishga haqli.

Qo‘shimcha tarzda jabrdiydalarga psixologik yordam kerak bo‘lishi mumkin. Jamoat tashkilotlari, yoshlar markazlari va xotin-qizlar qo‘mitalari jabrdiydalarga maslahat berish va ularni himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Bunday tashkilotlar axborot tarqatish, himoya choralarini tushuntirish va kiberbullingga duch kelgan shaxslarga manzilli yordam berish orqali unga qarshi kurashda o‘z hissasini qo‘shadi.

## Profilaktika va ta‘lim

Kiberbullingning oldini olish uchun jamiyatda raqamli madaniyat va axborot savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamoat tashkilotlari, ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik profilaktika choralarini samaradorligini oshiradi.

Internet foydalanuvchilarining raqamli savodxonligini oshirish kiberbullingning oldini olishning asosiy choralaridan biridir. Bunda, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida internetda xavfsizlik qoidalarini haqida ma‘lumot tarqatish muhim. Raqamli texnologiyalar va jamiyatda markaziy o‘rinni egallaydi. O‘quv dasturlari va seminarlar orqali internetda mas‘uliyatli faoliyat yuritishni targ‘ib qilishda shaxslarning internetdagi xavfsizligini ta‘minlashga erishiladi.

Maktab va universitetlarda raqamli xavfsizlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish profilaktika jarayonining muhim qismidir.

Bunday dasturlar yosh avlodni kiberbulling xavfi haqida xabardor qiladi, qonuniy huquqlari haqidagi bilimlarini oshiradi. Maktablarda o‘quvchilarni o‘rtasida raqamli madaniyatni targ‘ib qilish, ularni internetda yaxshi xulq-atvor qoidalariga o‘rgatish profilaktikada muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, oilaviy va maktab tarbiyasi ham profilaktikaning muhim elementidir. Ota-onalar bolalarning internetdagi faoliyatini nazorat qilishi, ular bilan internetdagi tahdidlar haqida ochiq suhbatlar o‘tkazishi lozim.

Axborot kompaniyalari profilaktika jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Raqamli xavfsizlikka oid videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda himoya mexanizmlari haqida ma‘lumot tarqatish, seminar va treninglar orqali jamoatchilikni xabardor qilish kiberbullingga qarshi profilaktikaning muhim qismlaridir.

## Davlat va jamoat tashkilotlarining roli

Kiberbullingga qarshi kurashda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi jamiyatdagi raqamli xavfsizlikni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunchilik tashabbuslari va profilaktika choralarini kiberbullingga qarshi samarali mexanizmlarni shakllantiradi.

O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan milliy strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Raqamli texnologiyalar va Ichki ishlar vazirligi va boshqa tegishli organlar kibertahdidlarga qarshi choralar ko‘rsatishda faol ishtirok etmoqda. Davlat internetdagi jinoiyatchilikning oldini olish maqsadida milliy xavfsizlik dasturlarini joriy qilmoqda.

Kiberbulling jabrdiydalari uchun ishonch telefonlari va yordam markazlarini tashkil etish davlatning muhim tashabbuslaridan biridir. Bunday markazlar jabrdiydalarga maslahat berish, ularni huquqiy himoya mexanizmlari bilan ta‘minlash va tegishli organlarga murojaat qilishda yordam beradi.

Jamoat tashkilotlari ham kiberbullingga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. IT kompaniyalar uyushmasi, yoshlar tashkilotlari va xotin-qizlar qo‘mitalari jamoatchilik orasida kiberxavfsizlikni targ‘ib qilishda faol ishtirok etadi.

Ayollar va bolalar kabi himoyaga muhtoj guruhlarga qaratilgan tashabbuslar alohida ahamiyatga ega. Maktab o‘quvchilari va talabalar uchun maxsus dasturlar, jamoatchilik uchun ochiq seminarlar va axborot vositalari orqali ma‘lumot tarqatish kiberbullingga qarshi kurashda samarali qadamdir.

# BILIM VA AMALIYOT BIRLASHGANDA...

Joriy yilning 20-iyun kuni Prezidentimiz raisligida muhandislik sohasidagi kadrlar tayyorlash va oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakatimizda yiliga 3 mingga sanoat korxonasi ishga tushirilib, 150 ming atrofida ish o‘rni yaratilayotgani, shunga mutanosib ravishda davlat tomonidan ilm, ta‘lim va innovatsiyaga e‘tibor qaratilayotgani ta’kidlanib, ammo bu boradagi natijalar va yuqori malakali muhandislar hali yetarli emasligi, oliy o‘quv yurtlari bilan sanoat o‘rtasida uzilish borligi tanqid qilindi.


Shuningdek, yig‘ilishda barcha muhandislik oliygo‘hlari hamkorliklarida kafedral ochishi va dual ta‘limni yo‘lga qo‘yishi, korxonalar kafedralarini jihozlashi, o‘qituvchi va talabalarni rag‘batlantirishga ma‘lablag‘ ajratishi bo‘yicha vazifalar berilgan edi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Navoiy mashinasozlik zavodi hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamkorligida ochilgan ishlab chiqarish mahalliyashtirish va innovatsion rivojlanish markazi faoliyatini bugungi kunda bu tizim nihoyatda samarali ekanini amalda isbotlamog‘da.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qarashli Navoiy mashinasozlik zavodi ishlab chiqarish quvvati va mahsulotlari turi bo‘yicha Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Hozir korxonada 3,5 mingdan ortiq ishchi-xodim tomonidan mahalliyashtirilgan va import o‘rnini bosuvchi 15 ming turdan ortiq mahsulot

ishlab chiqarilmoqda. Xususan, zavodda tayyorlanayotgan o‘ta yuqori aniqlikdagi yuksak sifatli metall konstruksiyalar, uskunalar va jihozlar hamda turli o‘lchamdagi ehtiyot qismlariga talab tobora oshib bormoqda. Zavod ayni vaqtda Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo‘linmalariga turli rusumdagi uskunalar, dastgohlar va ularga zarur ehtiyot qismlar yetkazib beryapti.

Innovatsion loyihalarning amaliyotga joriy etilishi hisobiga nafaqat korxonada quvvati, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va sifati ham yanada oshdi. Pirovardida mahsulot turli 14,7 mingdan oshib, hozir korxonaning yillik ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 1 trillion so‘mdan ziyodni tashkil etmoqda. Keyingi yillarda xorijdan sotib olinadigan 500 turdan ortiq mahsulot zavod sexlarida o‘zlashtirilib, ishlab chiqarishga erishildi. Yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Bunda korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan malakali mutaxassislarim



beqiyos xizmati bor. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va innovatsion rivojlanish markazi tashkil etilishi esa bu borada yana bir muhim qadam bo‘ladi.

— Bu tashabbus ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirishda muhim ahamiyatlidir. Hozir kombinat ehtiyot uchun zarur ehtiyot qismlarning 80 foizi mahalliyashtirilib, shu zavodda ishlab chiqarilmoqda. Markaz faoliyatiga esa yana yangi mahsulotlarni mahalliyashtirish imkonini beradi. Shuningdek, soha mutaxassislari, olimlar va talabalarining yangi loyihalari va tashabbuslarini o‘rganish, hayotga tatbiq etishda markaz faoliyati muhim o‘rin tutadi, — deydi Navoiy mashinasozlik zavodi bosh muhandisi o‘rinbosari Botirali Yusupov.

Albatta, Navoiy mashinasozlik zavodiga kerakli mutaxassislarni Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayyorlab berishini hisobga olganda ushbu markaz faoliyatini nihoyatda zarur va samarali Universitetning energomexanika fakulteti huzurida tashkil etilgan markazga oliygohning 5 nafar tajribali professor va dotsenti jalb etilgan. 3 ta o‘quv, loyihalash va laboratoriya xonasi zaruriy hamda so‘nggi rusumdagi zamonaviy uskunalar va jihozlar bilan ta‘minlangan. Bu esa talabalar va yosh olimlarga o‘zaro fikr almashish, izlanish, sohaga doir tashabbuslarini loyihalash imkonini beradi. Bundan tashqari, markazda magistrantlar va doktorantlar uchun loyihalari ishlab chiqish, har xil namunalari

yaratish, shuningdek, skanerda mahsulotlarning 3D loyihasini kompyuterga tushirish, ishlab chiqarishga tatbiq etish bo‘yicha ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

— Ushbu markaz sohadagi ilimimizni yanada oshirishimiz uchun ayni muddao bo‘ladi. Hozir korxonadagi metall kesuvchi dastgohlar dinamikasini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy ish qilyapman. Markaz esa bizga bu boradagi ishlarimizni tashkil qilish, amalda qo‘llab ko‘rish imkonini bermog‘da. Bu yerda ilmiy ishim doirasida texnologlar va konstruktoral bilan doimiy aloqadamiz va ular bilan maslahatlashgan holda izlanishdamiz, — deydi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktoranti Akmal Mamadiyoyev.

G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

